



About the grading category in linguistics

Zarina KURBANOVA¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024

Received in revised form

10 January 2025

Accepted 25 January 2025

Available online

25 February 2025

Keywords:

absolute evaluations,
psychological evaluations,
aesthetic evaluations,
hedonic evaluations,
sublimated evaluations,
rational and emotional
evaluations.

ABSTRACT

This article examines two types of evaluation: absolute and relative. The first uses the terms "good/bad," while the second uses "better/worse." Absolute evaluation pertains to a single evaluated object, whereas relative (comparative) evaluation involves at least two objects or two different states of the same object.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss2/S-pp372-376>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Tilshunoslikda baho kategoriyasi haqida

Kalit so'zlar:

absolyut baholar,
psixologik baholar,
estetik baholar,
geodonistik baholar,
sublimatsiyalangan baholar,
ratsional va emotsional
baholar.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolamizda bahoning ikki turini ko'rib chiqamiz: mutlaq va nisbiy. Birinchisida "yaxshi/yomon", ikkinchisida "yaxshiroq/yomonroq" terminlari qo'llanadi. Mutlaq bahoda bir baholanuvchi obyekt haqida so'z boradi, nisbiy (qiyosiy) bahoda hech bo'lmaganda ikkita obyekt, yoki bir obyektning ikki xil holati mavjud bo'ladi.

О категории оценок в лингвистике

Ключевые слова:

абсолютные оценки,
психологические оценки,
эстетические оценки,
геодонистические оценки,
сублимированные оценки,
рациональные и
эмоциональные оценки.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются два типа оценки: абсолютная и относительная. В первом случае используются термины «хороший/плохой», во втором – «лучше/хуже». Абсолютная оценка относится к одному оцениваемому объекту, тогда как относительная (сравнительная) включает как минимум два объекта или две различные ситуации одного объекта.

¹ Independent Researcher, Samarkand State Institute of Foreign Languages.

KIRISH

Semantik tahlilda baho taqqoslashdan ajralmas ekanligi ma'lum bo'ladi: mutlaq belgilar yashirin tarzda qiyosni o'zida saqlaydi va shu tariqa qiyoslash birlamchidir. Biroq til birliklariga nisbatan absolyut baho semantik jihatdan bir muncha murakkabdir. Qolaversa, tabiiy tildagi baho ifodalari shakllariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, manzara aksincha bo'lib chiqadi. Tabiiy tilda aynan absolyut baho dastlabki sifatida tushuniladi. Absolyut baholar nisbiy (qiyosiy) baholarga nisbatan sodda usullarda ifodalanadi va shaklan elementar tasavvur qilinadi: chiroyli, aqlli va h.k.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'z navbatida, N.D.Arutyunova aksiologiyada ajratilgan baho turlariga asoslanib, tizimni kengaytirish va har tomonlama mantiqiy modellashtirishga harakat qildi. Muallif tomonidan berilgan tasnifda qaysi turdagi obyektlarni tasniflay olishiga ko'ra farqlanuvchi xususiy baho belgilanishlari guruhi ajratiladi.

Umumiy ravishda tadqiqotchi xususiy baholarning 7 ta toifasini ko'rib chiqqan bo'lib, ular shartli ravishda uch guruhga bo'linadi:

– individuallashtirgan yoki individual, o'z navbatida quyidagi toifalarga bo'linadi:

a) sensor-ta'm yoki gedonistik baholar (yoqimli – yoqimsiz, mazali – bemaza, maftunkor – ko'rimsiz); b) psixologik baholar: 1) intellektual baholar (qiziqarli, zavqli (jozibador), junbushga keltiradigan, chuqur, aqlli – qiziqarsiz, jozibasiz, zerikarli, oddiy, yuzaki, bema'ni); 2) emotsional baholar (xushchaqchaq – g'amgin, xohlangan – xohlanmagan, yoqimsiz) va h.k. Sublimatsiyalangan baholar (lot. *sublimare*) “ulug'lamoq, balandga ko'tarmoq”: a) estetik baholar (chiroyli – xunuk, go'zal – beo'xshov, badbashara); b) estetik baholar (axloqiy – axloqiy bo'lmagan, ma'naviyatga xos – ma'naviyatga xos bo'lmagan, yaxshi – yovuz) va boshq. Ratsional baholarni ajratamiz: utilitar (foydali – zararli, muvofiq – nomuvofiq). Biz tomonimizdan normativ baholar (to'g'ri – noto'g'ri, me'yoriy – nome'yoriy, standart – nostandart, sog'lom – kasal); teologik baholar (samarali – samarasiz, maqsadga muvofiq – maqsadga muvofiq emas, omadli – omadsiz); sensor-ta'm yoki gedonistik baholar tadqiq qilingan. Sezish, jismoniy va psixik hissiy tajriba bilan bog'liq bo'lgan psixologik baholar insonni tabiat va ijtimoiy muhitda yo'naltiradi, uning akkomodatsiyasiga va qulaylikka erishishiga yordam beradi. Ushbu xususiy baho kategoriyalari jismoniy tajribaga asoslanadi va odatda motivatsiyalanmaydi, inson xohish-irodasidan va o'z-o'zini nazorat qilishidan qat'i nazar inson boshidan kechiradigan hissiyotlarda kechadi. Sensor-ta'm va psixologik baholar obyektidan ko'ra ko'proq baho subyekting didini xarakterlaydi. Baho subyekti nozik yoki qo'pol idrokli, chuqur yoki yuzaki hissiyotlarga ega psixik yoki jismoniy retseptor vazifasini bajaradi.

– Baho bilimlarining ikkinchi guruhi ham insonparvar baholar deb ataladi, chunki sensor baholarni insoniylashtirgan holda ulardan yuqori turadi. Estetik baholar ajoyib degan tuyg'uning qondirilishi bilan, axloqiy (etik) baholar esa ma'naviyat tuyg'usining qanoatlantirilishi bilan bog'liq. “Bu baholar guruhi arxetip tushunchasi: me'yor, namuna, misol, obyektga qo'yiladigan potensial talablarga nisbatan befarq emas” (Arutyunova, 1988, 75).

– Baholarning uchinchi guruhini ratsionalistik baholar shakllantiradi. Ular insonning amaliy faoliyati, qiziqishlari va kundalik turmush tajribasi bilan bog'liq. Ularning asosiy mezonlari jismoniy yoki ruhiy foyda, ma'lum bir funktsiyani bajarishga yo'naltirilganlik, muayyan maqsad, belgilangan standartga muvofiqlik kabilardir.

Baholashning barcha uch toifasi insonning jismoniy va ruhiy olamini uning ma'naviy olami birlashtirib turadi.

“Sublimatsiyalangan baholar boshqa baholarga qaraganda ko'proq darajada qadriyatli munosabatlarni o'rnatadi” (Ivin, 1973, 25). Sublimatsiyalangan baholarning asoslari atrofdagi olamning xususiyatlariga hissiy, sensor-ta'm va psixologik reaksiya bilan bog'liq. Bundan tashqari, estetik baholar asoslari foydali/zararli natijalar amalda nima berishga nisbatan reaksiya bilan shartlangandir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Pisanovaning fikricha, sublimatsiyalangan baholar hissiy, sensor-ta'm, psixologik va ratsional baholar bilan motivatsiyalanadi, chunkibir xil semantik komponentlar (deskripsiylar) turli baholar asoslariga yo'naltirishi mumkin. Masalan, implitsit ifodalangan “yoqimli” va “yoqimsiz” semantik belgilari bir vaqtning o'zida estetik va axloqiy baholarning motivi rolini ham bajaruvchi sensor-ta'm va emotsional baholarning asosi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bir qator olimlarning fikriga ko'ra, me'yorlarga munosabat baholovchi ifodalar (qadriyat mulohazalari) uchun eng obyektiv asoslarni taqdim qiladi. “U subyektiv omil rolini bartaraf qiladi yoki susaytiradi. Etika haqiqatga o'xshash barqaror ma'yorlarni yaratadi. Estetika o'z-o'zicha undan uzoqlashgan holda qiyinchilik bilan me'yorlashadi. Shuning uchun ham estetik baholar motivlari eksplikatsiyasi nihoyatda qiyin” (Pisano, 1996, 144]. Bundan tashqari allaqachon aniqlangan xususiy baholash toifalarini, Arutyunovaning tasnifini teleologik baho deb nomlanuvchi baho yakunlab, uning asosini dunyoning atrofdagi manzarasini ideallashtirish tashkil etadi. Sublimatsiyalangan baholar mohiyatiga ko'ra teleologikdir, chunki ular insonga nafaqat ma'naviy, balki amaliy jihatdan ham kerak bo'lgan narsalarni qamrab oladi. Kimgadir kerakli, mos, foydali, yaxshi bo'lgan narsalar haqida so'z boradi. Sublimatsiyalangan baholar teleologikligi keng ma'noda go'zallikning olijanob, insoniylashtirilgan modellariga intilishdan iborat. Tor ma'noda axloqiy va estetik baholarning teleologikligi inson nimaga intilayotganini, emotsional-hissiy shaklda nimani idrok etishini, shuningdek, kundalik hayotdau yaratadigan va iste'mol qiladigan narsalarni aks ettiradi.

Ba'zi tadqiqotchilar yuqorida aytib o'tilgan axloqiy, estetik, ratsional va emotsional baholarga qo'shimcha ravishda funksional, piyetet va qiyosiy baholarni ajratadilar (S.A. Dmitriyeva, V.M. Savitskiy). Faktik material ko'rsatganidek, maqollarda bu turdagi baholashlar nafaqat mustaqil, balki axloqiy va estetik baholar kombinatsiyalari, shuningdek, boshqa baholash turlari bilan, masalan, funksional baholar bilan qiyosiy baholar shaklida ham bo'lishi mumkin. Masalan, ingliz tilida *a creaking door hangs longest* – so'zma-so'z: g'ichirildigan eshik uzoqroq osilib turadi. N.D. Arutyunova tasnifiga ko'ra, mazkur misolda me'yoriy va teleologik baholar uyg'unlashadi. Shu tariqa, qiyosiy va funksional baholarni ratsionalistik baholarga kiritish mumkin.

Nazarimizda, ko'rsatilgan baho tasniflari turlarini qo'shish orqali baholar taksonomiyasining kengaytirilishi maqollar aksiologik parametrlarini to'liqroq o'rganish imkonini beradi.

Jahon va milliy madaniyatlarda mavjud bo'lgan qadriyatlar sistemalari haqidagi bilimlarni taqdim etishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish uchun zamonaviy tilshunoslik turli fanlar: falsafa, mantiq, madaniyatshunoslik, psixologiya va boshqa ilmiy sohalar ma'lumotlarini birlashtirish zarurligini bildiruvchi kognitiv yondashuvdan foydalanadi. Bunday yondashuv lisoniy muloqotning yashirin mexanizmlari, insonlar intellektual faoliyati, jumladan muloqotining umumiy qonuniyatlari haqidagi nazariy tasavvurlarning rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Tilga kognitiv yondashuv tilning amal qilishida inson tajribasining rolini tadqiq qilishni, tildan foydalanuvchi individlarning bilim strukturalarini o'rganishni, shuningdek, mazkur bilimlarni namoyish etish usullarini umumlashtirishni nazarda tutadi. Yangi bilimlarni olishga qaratilgan baholash jarayonining o'zi subyektning qadriyatlar sistemasi haqidagi mavjud bilimlari asosida amalga oshiriluvchi konstruktiv lisoniy faoliyat sifatida qaraladi. So'zlovchi va qabul qiluvchi qadriyatlar sistemasi haqida zarur bilimlarga ega bo'lgan sharoitda to'liq quvvat bilan ishlaydigan murakkab aksiologik mexanizmlar haqida so'z boradi. Milliy ong prizmasidan o'tgan, umuminsoniy va milliy-madaniy qadriyatlar haqidagi tasavvur va bilimlar baholovchi qiymatlarning semantik asoslari shakllantiradi. Xususi baholarning kombinatsiyasini ushbu bilimlarni ifodalash strukturasi deb hisoblash mumkin" (Pisanova, 1989, 22). "Baholovchi mazmunni deskriptiv mazmun uyg'unlashtiruvchi aqli, ahmoq, tajribali, chidamli, halol kabi sifatlarlarni xususi baholovchi sifatlarga kiritish kerak. Ular o'z navbatida uzluksiz qatorni tashkil qilib, bunda baholovchi va tavsiflovchi ma'nolar turli nisbatlarda uyg'unlashadi" (Volf, 1985, 47). Xususi baholar nazariyasining asoslari E.M. Volf va N.D. Arutyunovlar tomonidan yaratilgan.

XULOSA

Xususi baholashning lingvokognitiv nazariyasi uchun inson tajribasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, u obyektiv borliq haqidagi hissiy-empirik bilish amaliyotiga asoslangan va emotsional-hissiy idrok orqali jamlangandir. U yoqimli va yoqimsiz, mazali va bemaza, qiziqarli, maftunkor, chuqur hamda qiziqarsiz, zerikarli, yuzaki, sodda, shuningdek, quvnoq, xushchaqchaq, orzu qilingan, qayg'uli, g'amgin, istalmagan narsalar haqidagi bilimlar shaklida mavjud bo'ladi. Bundan tashqari, tajriba ratsionalistik bo'yoqqa ega bo'ladi, chunki inson hayoti muhim ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan amaliy masalalar bilan bog'liq.

Bunday tajriba foydali va zararli, me'yoriy va nome'yoriy, yaxshi va yomon, samarali va samarasiz, muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz haqidagi bilimga aylanadi. Inson tajribasining emotsional-hissiy, psixologik va amaliy aspektlari tabiiy tilda xususi, sensor-ta'm, psixologik varatsionalistik baholashning semantik asoslari sifatida mavjud bo'ladi. Bundan tashqari, nisbatan yuqori darajadagi tajriba mavjud bo'lib, obyektiv haqiqatni tushunishning yuqoriroq darajadagi bilishini nazarda tutadi. Unga ulug'vor, insoniylashtirilgan ma'no singib ketgan, hajmi esa tajriba tashuvchining shaxsiy fazilatlariga, uning ma'naviy dunyosi, ma'lumoti va inson hayotini tashkil etuvchi boshqa ko'plab ijtimoiy omillar bog'liq. Chiroyli va xunuk, ajoyib va beo'xshov, shuningdek, axloqiy va axloqsiz, yaxshilik va yomonlik haqidagi bilimlar asosini tashkil etuvchi estetik hamda ma'naviy-axloqiy g'oyalar haqida so'z boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Арутюнова, Н.Д. Язык и мир человека / Н.Д. Арутюнова. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 895 с.
2. Вольф, Е.М. Метафора и оценка / Е.М. Вольф // Метафора в языке и тексте. – М.: Наука, 1988. – С.52-65.
3. Дмитриева, О.А. Культурно-языковые характеристики пословиц и афоризмов: Дис. ... канд. филол. наук. / О.А. Дмитриева. – Волгоград: Изд-во ВГПУ, 1997. – С.63-68.

4. Ивин, А.А. Логика норм / А.А. Ивин. – М.: Изд-во МГУ им. М.В.Ломоносова, 1973. – 122 с.
5. Писанова, Т.В. Национально-культурные аспекты оценочной семантики./ Т.В.Писанова. – М.: ИКАР, 1997. – 320 с.
6. Савенкова, Л.Б. Языковое воплощение концепта / Л.Б. Савенкова //Проблемы вербализации концептов в семантике текста: Материалы междунар. симпозиума. Волгоград, 22-24 мая 2003 г.: в 2 ч. – 4.1. Научные статьи. – Волгоград: Перемена, 2003. – С.258-264.
7. Яхшиев, А. (2024, October). Особенности профессионального диалога. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 474-478).
8. Бушуй, А. М., & Яхшиев, А. А. (1986). Фразеология узбекской диалогической речи (на материале художественной прозы). Сов. тюркология, 3, 27-33.